

IBN SINONING PEDAGOGIK QARASHLARI ASOSIDA OILADA SOG'LOM MUHITNI SHAKLLANTIRISH

Sharipov Mirjalol Jamoladdin o'g'li

Chirchiq davlat pedagogika universiteti talabasi

Shakharipovmirjalol@gmail.com

Samadova E'zoza Xusniddinovna

Chirchiq Davlat Pedagogika Universiteti talabasi

<https://doi.org/10.5281/zenodo.11664810>

Annatotsiya: Ushbu maqolada Abu Ali Ibn Sinoning pedagogik qarashlari hamda tavsiyalari asosida oilada sog'lom muhitni tashkil etish, kelajak bunyodkorlari bo'lgan farzandlar tarbiyasi va maktabdagi ta'lim jarayonlarini tog'ri tashkil etilishi haqida bayon etilgan

Kalit so'zlar: Sog'lom muhit, to'g'ri muloqot, nevroz, nutqning senzitiv davri, tajribali ota-ona, sog'lom avlodlar zanjiri, inklyuziv ta'lim.

Sog'lom muhit va oila- ushbu ikki tushuncha bir-biri bilan katta kuch bilan bog'lanishi lozim bo'lgan bog'liqliklardir. Chunki muhit-hayot, faoliyat kechadigan tabiiy va ijtimoiy sharoitlar majmuidir. Oilada esa kelajak bunyodkorlari yoshlar o'sib ulg'ayadi, tarbiyalanadi. Muhitlar har xil geografik muhit, biologik muhit, hayvonot dunyosi muhiti va ushbu muhitga ta'sir ko'rsata oladigan, ularni o'zgartira oladigan katta kuchli muhit – bu oila muhitidir. Oiladagi muhit albatta, o'sib kelayotgan bolalarga u qanday tashkil etilganligiga qarab o'z ta'sirini ko'rsatadi. Abu Ali Ibn Sinonig bir qator asarlarida jumladan “Tadbiri manzil” risolasida risolasida inson tabiati tug'ilganda axloqli yoki axloqsiz bo'lmaydi, degan g'oya muhim ahamiyat kasb etadi. Odamlar aslida yaxshi xulq, tayyor shaxsiy sifat, odat va ko'nikmalar bilan tug'ilmaydilar. Yuqoridagi xususiyatlar birdagina yuzaga kelib qoladigan narsa emas albatta, yillar davomida atrofdagilarning ta'siri, tashkil qilingan muhit va muloqotlar orqali gavdalanadi. Oila tarbiyaning o'chog'idir. U bolada shakllanishi lozim bo'lgan barcha insoniy fazilatlar va munosabatlarni tarbiylovchi, unda yuzaga keltiruvchi, ilk hayot maktabi hisoblanadi. Shunday ekan oiladagi sog'lom muhit va tarbiya shu bilan birgalikda eng asosiysi bolalarga to'g'ri munosabatning yo'lga qo'yilishi lozim. Chunki bolalarga bildirilgan munosabat va muhit orqali bolalar nevrozining kelib chiqishini yaxshi bilamiz.

Nevroz- oliy nerv sistemasining nerv faoliyati buzilishi bilan bog'liq og'ir ruhiy kasallik hisoblanadi. Umumiy olganda ranjish, qo'rquv, qiyinchiliklar tufayli kelib chiqadigan ilojsizlik va umidning so'nish hissiyotlari nevrozning yuzaga keltiruvchi sabab bo'la oladi. Shu bilan birgalikda nerv sistemasi faoliyatiga odam yashaydigan va faoliyat ko'rsatadigan muhit sharoitining katta ta'siri natijasi hisoblanadi. Uzluksiz aqliy mehnat, oiladagi muammolar, urush-janjallar, turli xil kishilar o'rtasidagi kelishmovchiliklar odamning nerv sistemasiga ta'sir ko'rsatib, uning umumiy kayfiyatiga salbiy ta'sir ko'rsatadi. Yuqoridagi ushbu holatlar uzoq vaqt davomida takrorlanishi natijasida nevroz yuzaga kelishi mumkin.

Bolalarda nevrozning yuzaga kelishida-bolani ilk yoshlaridan boshlab me'yordan ortiq qattiqqo'llik bilan tarbiyalash, tahqirlash, uning qizqish va qobiliyatlarini tan olmaslik, e'tibor bermaslik, bolada qo'rqqoqlik, jur'atsizlik, o'ziga nisbatan ishonchsizlikni keltirib chiqaradi. Bu holat esa bolaning yakkalanib qolishiga, jamoada o'z fikrini bayon etishda qiynalishiga, bir ishni boshlashda qo'rqib qolishiga, o'zini boshqalarga nisbatan past nazarda ko'rishiga olib keladi.

Bolaga ortiqcha mehribonlik qilish, noto'g'ri so'zlar bilan erkalatish, har qanday istagini bajo keltirish, arzanda qilib o'stirish natijasida ham nevroz yuzaga keladi. Bunday muhit va munosabatda o'sgan bolada o'zini o'zgalardan me'yoridan ortiq ustun qo'yish, mehnat hamda qiyinchiliklarga chiday olmaslik holatlari kuzatiladi.

Oiladagi mavjud muhit va farzandlarga bo'lgan munosabat orqali uning kelajakdagi qanday shaxs bo'lib yetishiga ta'sir ko'rsatsa bo'ladi. Shuning uchun oilada sog'lom va to'g'ri tashkil qilingan muhit bo'lishi lozim. Agarda yuqoridagi holatda farzandlar tarbiyalansa, kelajakda ular o'z yosh boshqichlarining qaysidir davrida jamiyatda uzilib qolish holatlari yuzaga keladi. Abu Ali ibn Sinoning: "Inson o'ziga kerakli narsalarni faqat jamiyat yordamida qo'lga kiritishi mumkin", degan qarashlari ayni haqiqatdir. Allomaning ushbu qarashlari bugungi kunda inklyuziv ta'liming maqsad va vazifalarida o'z aksini topgan.

Sog'lom muhit- sog'lom fikr hamda sog'lom qarashlar orqali yuzaga keladi, albatta. Bolalarda nutq rivojlanishining senzitiv davri 1,5-3 yoshga to'g'ri keladi. Shu vaqtda bolaning atrofidagi kishilarning nutqiga yanada e'tiborli bo'lishi muhim. Bola bilan so'zlashayotganda so'zlarni aniq talaffuz qilishlari va boladan ham aniq talaffuzni talab etishlari zarur. Bolada birinchi so'zlar paydo bo'lgandan so'ng, tayyorlov davri tugab, aktiv nutqni egallash davri boshlanadi. Bu vaqtda bola atrofdagilarning artikulyatsiyasiga e'tibor beradi. U gapirayotganlar orqasidan so'zlarni ko'p marotaba takrorlaydi va o'zi ham so'zlarni talaffuz qiladi. Ibn Sinoning pedagogik qarashlari asosida yuqorida aytib o'tganimizdek, bola xarakterining tarkib topishida hamda nutqning me'yorda rivojlanishida muhitning ta'siri ancha katta bo'lib, bu ancha katta bo'lgan ahamiyat bola atrofida ko'proq sog'lom odamlar bo'lishini talab qiladi. Ya'ni bola atrofida nutqida kamchiliklari bo'lgan odamlar bo'lsa-yu, uning nutqi orqali bola nutqi shakllansa bu albatta, nutq kamchiliklarini yuzaga kelishiga sabab bo'ladi.

Bilim olishda bolalarni maktabda o'qitish zarurligini qayd etar ekan, olim ta'limda quyidagi tomonlarga rioya etish zarurligini ta'minlaydi:

- bolaga bilim berishda birdaniga kitobga band qilib qo'ymaslik;
- ta'limda yengildan og'irga borish orqali bilim berish;
- olib boriladigan mashqlar bolalar yoshiga mos bo'lishi;
- jamo'a bo'lib maktabda o'qitishga e'tibor berish;
- bilim berishda bolalarning mayli, qiziqishi va qobiliyatini hisobga olish;
- o'qitishni jismoniy mashqlar bilan qo'shib olib borish

Yuqoridagi prinsiplar ayni hozirchi davr ta'limiga ham hech shubhasiz to'g'ri keladi. Masalan yuqoridagi "ta'limda yelgildan murakkabga borish orqali bilim berish" fikrini biz quyidagicha ko'rib chiqamiz. Ayrim 6 yoshli bolalar ota-onasining xohishi bilan hali o'qishga tayyor bo'lmay turib, maktab ostonasiga qadam qo'yishadi. Afsuski, o'qish davomida aqliy-ruhiy zo'riqish oqibatida turli xil kasalliklarga chalilib, jismoniy va psixik rivojlanishda nuqsonlar paydo bo'ladi. Ibn Sino esa ruhiy hamda jismoniy nuqsonlardan yiroqda bo'lish uchun ta'lim bilan birgalikda mehnat bir xil balansda borishini ta'kidlagan. Ibn Sinoning ushbu qarashlarini Lem Semyonovich Vigotskiyning "Har qanday ruhiy va jismoniy nuqsonda ham taraqqiyot davom etadi" deya aytilgan fikri bilan bog'lash mumkin. Natijada bolalarda eng avvalo miya strukturasining va nerv psixik jarayonlarining maktabda o'qish uchun to'liq etishmaganligi, ko'ruv harakat koordinatsiyasi va kichik motorikaning rivojlanmaganligi, mantiqiy fikr mahsuldorligining pastligi kuzatiladi. Bolaning bilish jarayonlarida ham rivojlanish sustlashib, ularga ketadigan energiya taqsimoti buziladi. Bolani erta o'qish, yozish, sanashga o'rgatib uning bilish jarayonlari

zo'riqtirilsa, bolaning emotsional hissiy rivojlanishi uchun zarur bo'lgan miya quvvatining tanqislashuviga sabab bo'ladi. Bunday xolatda energiya taqsimlanishining majburan buzilishi sodir bo'lib, u 7-8 Yoshli bolalarni qo'rquv, agressivlik yoki giperaktivlik holatlariga olib keladi. Yuqorida sanab o'tilgan barcha salbiy oqibatlar oiladagi muhit va farzandlarga nisbatan no'to'g'ri munosabat orqali yuzaga kelganligini ko'rishimiz mumkin. Shunday ekan biz farzandlarni sog'lom, har taraflama yetuk bo'lishini xohlasak. Barchasini oiladan boshlashimiz zarur. Buning uchun esa ota-ona ham kerakli bilim-malakaga ega bo'lishi zarur albatta. Chunki sog'lom muhit va sog'lom ota-ona natijasi esa sog'lom avloddir. Abu Ali ibn Sinoning pedagogik qarashlarining zamonaviy tahlili orqali biz bemalol sog'lom avlodlar zanjirini tuza olamiz.

References:

1. "Ontogenez psixologiyasi" E.E.G'oziyev Toshkent "NIF MSH" 2020
2. "MAXSUS PEDAGOGIKA ASOSLARI O'QUV QO'LLANMA" F.U.Qodirova, Sh.Z.Matupayeva, Sh.T.Shermuxeimedova, B.Z.Fozilov, B.M.Abdullaev, Z.X.Xusnuddinova
3. "BOLALAR RIVOJLANISHIDAGI NUQSONLARNING KLINIK ASOSLARI" D.R. Madazizova O'zbekiston faylasuflari milliy jamiyati» nashriyoli TOSHKRNT - 2018
4. "Ibn Sino Ta'limoti" F.Nurboyev "Tib-kitob" nashriyoti Toshkent-2020
5. "Tibbiy o'gitlar", "Tib qonunlari" Abu Ali Ibn Sino
6. "Inklyuziv va maxsus ta'limning fiziologik asoslari" F.U.Qodirova, X.Sh.Yunusova